

TIL TARIXI VA TARAQQIYOTI

M. Abdunaimova ¹*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada tillarning kelib chiqishi, paydo bo'lishi, rivojlanishi, odamlar orasiga keng tarqalishi va til taraqqiyotida qo'shni xalqlar o'rtasidagi turli munosabatlar haqida ma'lumot berib o'tilgan. Shuningdek tillar hamkorligi va tillarning chatishuvi masalalariga ham alohida e'tibor qaratilib, so'z o'zlashtirish va grammatik tizimga ta'sir jihatidan ularning farqlari tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: tilning paydo bo'lishi, tilning tarixi, Yunoniston faylasuflarining til haqidagi g'oyalari, til va nutq o'rtasidagi munosabatlar.

Dastavval tillarning rivojlanishi haqida bilishdan oldin til nima ma'no angaltishi va foydalanishini bilishimiz lozim. Til kishilar o'rtasidagi munosabatning eng muhim quroli bo'lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va umum insoniy manfaatlarni ifoda etadi. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi insoniyat jamiyati bilan mustahkam bog'liq. Til insoniyat tarixi qadar qadimiylidir. Xalq qardosh qabilalar ittifoqi sifatida shakllangan murakkab tarixiy uyushmadir. Xalqning asosiy belgilari: umumiy til, umumiy hudud, madaniyat va ma'naviyat muhitning umumiyligidir. Xalqning asosiy belgilaridan biri bo'lgan milliy til o'zaro farqlanuvchi, yetakchi, iqtisodiy va madaniy markaz tili sifatida namoyon bo'ladi. Tilning paydo bo'lishi masalasi insoniyatni qadimdan qiziqtirib keladi. Tilning paydo bo'lishi juda murakkabdir. Bu masala faqat tilshunoslikning emas, boshqa ko'p fanlarning: antropologiya, psixologiya va etnografiya kabi fanlarning ham o'rganish obyektidir. Tilning paydo bo'lishi masalasi – til qachon va qayerda paydo bo'lgan, dastlab nechta til bo'lgan, u yoki bu tillar qanday tuzilishda bo'lgan va shu kabi savollarga hali ilmiy asoslangan mukammal javob topilgan emas. Ba'zi olimlarning fikricha, til taxminan besh yuz ming yillar ilgari paydo bo'lgan [2;25].

Qadimgi Yunonistonda faylasuflar tilni qay tarzda kelib chiqqanligi ustida uzoq davr qizg'in bahs yuritganlar. Tilshunoslik tarixidan ma'lumki, bu masalada grek faylasuflari bir-biriga zid ikki xil farazni o'rtaga tashlagan. Demokrit va boshqalar (asrimizgacha bo'lgan 460-370-yillar) tilda narsa nomi bilan narsa orasida hech qanday bog'lanish yo'q, bu nomlar mazkur tilda gaplashuvchi odamlar tomonidan yaratilgan, demak, til inson tomonidan yaratilgan, degan fikmi ilgari surishgan. Bu guruh olimlar anomalistlar deb nom olgan. Platon boshliq boshqa bir guruh olimlar (asrimizgacha bo'lgan 427-347-yillar) narsa bilan uning nomi orasida muayyan bog'lanish bor. Bu bog'lanish narsalarning xususiyatlaridan, tabiatidan kelib chiqqan va bu bog'lanish ilohiy kuch tomonidan o'rnatilgan, degan fikmi ilgari surishgan. Tarixda bu oqim analogistlar deb nom olgan. Hozirgi tilshunoslik nuqtai nazaridan qaralsa, narsalar bilan ulaming nomi orasida, umuman olganda hech qanday bog'lanish yo'q. Bu ko'pchilik olimlar tomonidan qayd etilgan. Chunki narsa bilan uning nomi orasida bog'liqlik bo'lganda tillarning soni 5000 dan ortib ketmasdi [3;43].

Til va nutq o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish hozirgi zamon tilshunosligining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu masala alohida "bir milliy" tilni yoki umuman tillarni nazariy ta'riflashdagi boshlang'ich nuqtadir. Til va nutq hodisalarini farqlash aksariyat tilshunoslar tomonidan tan olinadi, ammo ularning mohiyatini, chegarasini aniqlash mezonlari haqidagi fikrlar turli-tuman. I de Sossyur til va nutqni nutq faoliyatining ikki ajralmas bo'lagi deb hisoblab, ularni "Bir paytning o'zida fizik, fiziologik va psixik, bundan tashqari, individual va ijtimoiy munosabatlarga daxldor" jarayonlar deb ta'riflagan edi. Til, Sossyuming fikricha, u ilk faoliyatining ijtimoiy va psixik tomonlaridir, nutq esa uning individual va psixofizik tomonlari yoki "Odamlar nimani gapirsa, o'shalarning yig'indisidir". Til faoliyat mahsuli emas, balki faoliyatning o'zidir" degan g'oyani ilgari surgan V.fon Gumboldtdan farqli o'laroq, Sossyur "Til faoliyat emas, balki so'zlovchi tomonidan passiv qayd qilinadigan tayyor mahsulot, nutq mahsulidir" deydi. Uning ta'kidlashicha, "Tilning voqeligi, o'z tabiatiga ko'ra nutqqa nisbatan kam emas.

L. I.Smirnitskiy til va nutq munosabatlarini tahlil qilar ekan, intiqiy faoliyat tushunchasini chetlab o'tadi, ammo u Sossyurga qaraganda umumiy insoniyat nutqi tushunchasiga ko'proq mazmun bag'ishlashga harakat qiladi. Jumladan, olim nutq quyidagi shakllarda mavjudligini alohida ta'kidlaydi:

- tashqi tovushli belgili og'zaki nutq;
- tashqi grafik belgili yozma nutq;
- hech qanday real belgilarga ega bo'lmagan botiniy nutq.

¹ Mexribon Abdunaimova, SamDCHTI talabasi

A.I.Smimitskiyning fikricha, nutqning og'zaki va yozma shakllarda mavjud bo'lishi uning obyektiv tomonini tashkil etadi va ular tashqi nutqqa tegishli bo'ladi, ichki nutq esa faqat subyektiv shaklda mavjud bo'ladi va tafakkurdagi fikmi ifodalaydi. Shuningdek, "Inson nutqi son-sanoqsiz va cheklanmagan miqdordagi turli tuman nutqiy harakatlar natijasidir" va uning turlicha ko'rinishida aynan bir xil komponentlar va bu komponentlarning qo'llanishidagi qonuniyatlari aniqlanadi. Turlicha nutq bo'laklarining majmuasi va bu komponentlarning ishlatilishi to'g'risidagi qonuniyatlari va qoidalar umumiylikda muayyan bir sistemani tashkil qiladi, ya'ni o'zaro bir-birlariga bog'langan birliklar majmuasini va ular orasidagi munosabatlarni hosil qiladi. Birliklarning bunday tizimi tildir. Olimning fikricha, nutq umuman olganda "tadqiqot uchun xom materialdir", til esa bu "materialga asoslangan tadqiqot predmetidir" [1;15].

Til taraqqiyotida qo'shni xalqlar o'rtasidagi turli munosabatlar, savdo-sotiq, madaniy aloqalar, urushlar o'z ta'sirini qoldiradi. Bunday hodisalar ba'zi tillarda ko'proq, ba'zilarida esa kamroq aks etadi. Masalan, hozirgi zamon ingliz tili lug'at boyligining faqat 30% ga yaqin sof ingliz tiliga oid, qolganlari roman va sharq tillaridan kirgan so'zlardir. Tillarning bunday munosabatlari tillar hamkorligi deyiladi. Tillar hamkorligida tillarning chatishuviga odatda katta ahamiyat beriladi. Ba'zi olimlarning fikricha, har qanday hamkorlik ham tillar chatishuviga kiravermaydi. Masalan, bir tildan ikkinchi tilga so'z o'zlashtirilishi tillar chatishuviga kirmaydi, chunki o'zlashtirilgan so'zlar tilning grammatik ko'rinishiga o'z ta'sirini o'tkazmaydi: arab tilidan o'zbek tiliga o'zlashtirilgan so'zlar bunga yaxshi misol bo'la oladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, dunyo tillarining paydo bo'lishi bir necha yillar ilgari ajdodlarimiz davrida paydo bo'lgan va hozirgacha takomillashib borayotgan deb tushunamiz. Yunoniston faylasuflari va Smimitskiyning til tarixi haqidagi g'oyalari haqida kerakli ma'lumotlar berdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Abulkasimovna, E. Z. (2021). *The Problem of the Norms of Phraseological Units* Erdanova Zebiniso Abulkasimovna. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 74-81.
- [2]. Abulkasimovna, E. Z. (2021). *Activity of Professional Terms in Linguistics*. *European journal of innovation in nonformal education*, 1(2), 8-9.
- [3]. Asadova, C. S. qizi Timirxanova, NV (2022). *A quick and easy method of teaching english for primary school*. *international conference on learning and teaching*, 1(1).
- [4]. Asadova, C., Ulug'bekova, S., & Shamsiyeva, K. (2024, April). *Ingliz tilida lug'at yodlashning samarali usullari*. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 152-155).
- [5]. Salimovna, C. (2024). *Ingliz tilida talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirish*. *tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar*, 1(2), 275-277.
- [6]. Salohiddin, K. (2024). *Modern approaches to teaching english as a foreign language*. *modern problems in education and their scientific solutions*, 1(2), 24-28.
- [7]. Salimovna, A. C. (2024). *Ingliz tilini organishd fonetik qoidalarining orni*. *Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali*, 1(4), 79-81.
- [8]. M.T.Irisqulov "Tilshunoslikka kirish" Toshkent-2009, 263b.
- [9]. X.Haydarov, Ch. Asadova "Dunyo tillarining rivojlanish bosqichlari". *International Conference The development history and modern significance of intercultural dialogue* <https://doi.org/10.2024/ycx3ka64>.
- [10]. X.Haydarov, G. Xayrullayevna "Dunyo tillari tasnifi bo'yicha ayrim ma'lumotlar". <http://tadqiqotlar.uz>
- [11]. Chekhrangiz, A., & Singh, R. (2025). *The use of methods in the translation of literary texts*. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 12(01), 401-404.
- [12]. Обруева Г.Х. О сдвиге имени собственного в разряд нарицательных слов во фразеологии английского языка. *Вестник Челябинского государственного университета*, (22), 2010. – С.100-102.